

**ABDUQAYUM YO'L DOSHEV HIKOYALARIDA
TABIAT TASVIRI**

Karimova Mahliyoxon Mahkamjon qizi.

FarDU 2-kurs magistranti

+998905351634

Annotatsiya: *Mazkur maqola Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida tabiat tasviri tahliliga bag'ishlangan. Garchand uning asarlarida peyzaj tasviriga urg'u berilmagan bo'lsa-da, o'ziga xos badiiy bo'yoq va jiloga ega ekanligi misollar vositasida ochib beriladi.*

Аннотация: Данная статья посвящена анализу образа природы в рассказах Абдукаюма Ёлдошева. Хотя в его работах не подчеркивается пейзажный образ, на примерах раскрывается том факт, что он обладает неповторимым художественным колоритом и лоском

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the image of nature in Abduqayum Yoldoshev's stories. Although his works do not emphasize the landscape image, the fact that he has a unique artistic color and polish is revealed through examples.*

Kalit so'zlar: *Peyzaj, portret, ruhiyat, obraz, detal, tasvir*

Ключевые слова: *Пейзаж, портрет, дух, образ, деталь, образ*

Key words: *Landscape, portrait, spirit, image, detail, image*

Abduqayum Yo'ldoshev adabiy jarayonda o'z ovoziga, o'z uslubiga ega ijodkor bo'lib, hikoya, qissa, romanlaridagi har bir detalga alohida ahamiyat qaratadi, shu jumladan peyzaj tasviri ham bundan mustasno emas. Garchi, hikoya hajman qisqa bo'lsa-da, unda peyzaj tasviriga o'rın ajrata olish yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Asli Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida peyzaj tasviri nihoyatda kam uchraydi, ammo uchragan taqdirida hikoya mazmunini ochishga, boyitishga, voqelikni, ruhiy holatni oydinlashtirishga yordam beradi. Abdulla Qahhorga ta'rif berilayotganda "Oz so'zda ko'p ma'no ifodalash" xos bo'lsa, Abduqayum Yo'ldoshevda "Kam tabiat tasviri bilan, nuqtasiga urish" ta'biri mos keladi. Masalan, Abduqayum Yo'ldoshevning "Bankir" romanini olaylik.

"Tunda nogoh havo aynidi.

Osmon yuzini qora bulutlar bosib kela boshladi. Borliq zulmat og'ushida qoldi.

Havo tund va dim edi.

Tabiatda nimadir bo'lishi kutilayotganday.

Axiyri osmon chidab turolmadi – uning ko'z yoshlari sel bo'lib oqdi: ezilib yomg'ir yog'a boshladi..."⁴⁰

Tabiat tasviri xuddi voqealar holati bilan hamohang. Birdaniga yuz bergen bu voqealarni havo aynishiga o'xshaydi. Tolibjon va uning oilasi boshiga tushgan falokat

⁴⁰ А. Йўлдошев. Банкир. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2012. 25-бет.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

osmonni qoplagan qora bulutlarga qiyos qilingan. Ezilib yog'gan yomg'ir tomchilari Nozimaxonimning otasi hasratida to'kkani ko'z yoshlari go'yo.

Ko'riniq turganidek, tabiat tasviri qahramonlar hayotini oldindan bashorat qilganday tasavvur uyg'otadi. Darhaqiqat, tabiatning ushbu hodisalari qahramonlar taqdiri bilan ham, ruhiyati bilan ham o'zaro mutanosiblik kasb etadi. Yomg'ir –deyarli barcha ijodkorlarning sevimli peyzaj tasviri hisoblanadi. Yomg'irning ezilib, shivalab, bosib, shig'alab, savalab, sharros quyib yoki jala ko'rinishida yog'ishi badiiy asarlarda ko'plab uchraydi. Ushbu peyzaj tasviri adiblar nasrining ritmini belgilab berayotgandek taassurot qoldiradi.

Sobiq tuzum davridagi fojealar yangi jamiyat shakllanishidan oldin yangicha fikrlaydigan inson obrazini yaratish muammosi sifatida ma'lum tarixiy butunlikdan ajrab qolgan inson qismatini idrok etish orqali ifodalangan. Misol uchun A.Yo'ldoshevning "Quduq"⁴¹ hikoyasini keltirish mumkin. Unda insonga qo'l ostidagi ikkinchi darajali buyum sifatida qarovchi, mute fikrlovchi, mustamlakachilar yetovida butun boshli qishloqni yo'qotuvchi odamlar tasviri ustunlik qiladi. Mutelik xalqni halokatga olib boradigan yo'l edi. Mustaqil fikr yuritmaslik, aynan fiksizlik, nafs yo'lida faqat o'z huzuri va foydasi uchun, tiriklik uchun yashashni taqozo qiladi. Bunday odamlar o'rgatilgan, ishonchli robot kabi ishlab, evaziga hech narsa talab qilmas edi. Ular bir tomonidan CH.Aytmatov romanidagi manqurt obraziga o'xshaydi. Farqi: uning boshiga xom teri kiydirilmaganidadir.

Hikoya Tirkash muallimning qizi quduqqa tushib vafot etishi bahonasi bilan uning oilaviy ahvoli pedagogik kengashda muhokama qilinadi, direktor tuman gazetasida militsionerning maqolasini muktab jamoasida ishlab chiqdik, degan ma'lumot uchun Tirkash muallimning dardini yana yangilaydi. Go'yo mehribonlik ko'rsatgan kishi sifatida Tirkash muallimning darslarini boshqalar bo'lib olishadi. Tirkash muallim bo'sh qolib, o'z fojeasi, dardiga yanada chuqurroq botib boraveradi. Jamiyatdagi soxta "insonparvarlar" esa maqolani viloyat gazetasida qayta bostirishadi. Sabohatning o'limi endi nafaqat Tirkash muallim, balki butun qishloq uchun fojeaga aylanadi. Sovxoz direktori tepadagilar buyrug'i bilan qishloqdag'i barcha quduqlarni yoptirib tashlaydi. Qishloq suvsiz qoladi. Vahima, qo'rquv, hadik, umidsizlik odamlar qalbini kemirar edi. Odamlar bu falokatning bosh aybdori sifatida Tirkash muallimni ko'ra boshlashadi. Hatto Marvi xola Tirkashning uyi oldiga kelib, ovozini baralla qo'ygancha qarg'aydi. Bu sobiq tuzumning xalq ichidan mohirlik bilan dushman yasash usulining badiiy ifodasi edi. Jamiyatda esa ma'nан qashshoq, kaltabin, xudbin kimsalar, kaltabin rahbarlar nima desa, shunga ishonadigan kishilar yaxshi kun ko'rар edi, xolos. Bu tom ma'nodagi mutelik psixologiyasi bilan yashagan odamlar jamoasi edi. Ular muammoning mohiyatini angolmay, olomonlik falsafasining qurbaniga aylanishadi. Yozuvchining asosiy maqsadi yangi inson konsepsiyasini yaratish zarurligiga e'tiborni qaratish

⁴¹ Йўлдошев А. Пуанкаре: ҳикоя ва қиссалар. – Тошкент: Akademnashr, 2014.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

kerakligini ta'kidlar ekan, buni “Quduq”⁴² hikoyasida samarali amalga oshirdi. Ijodkor fikricha, ma’naviy dunyosi tor odamlar jamiyatni boshqarib, uni falokatga olib keldi.

Izlanishlar davomida nasrda, xususan, hikoyada odam va olamning tashqi belgilarini ichki xususiyatlar bilan yaxlit holda ifodalash kuchayishi natijasida avvalgi davrga nisbatan yangicha inson obrazi yaratilganiga guvoh bo‘ldik. Zulfiya Qurolboy qizining “Ayol” hikoyasidagi Nazokat timsolida ayol jasorati, matonati, irodasi, qalb go‘zalligi va ruhiy tetikligini kuzatish mumkin. Asar yetti qismidan iborat bo‘lib, unda tuzalmas kasalga chalingan ayolning o‘lim oldi holati tasvirlangan. Bu yerda biroz romantikaga berilish ham bor. Biroq romantika ham inson qalbidagi yuksak pafosning belgisi sifatida obraz mohiyatini ochib beradi. Hikoyada ayol va quyosh tushunchasi yangi bir kontekstda reallashadi va borliqning yaxlit modeli sifatida aks ettiriladi. Ayol hayotga chanqoq, mehrga to‘laligi bilan zulmat, yo‘qlikka qarshi kurashishga intiladi. Go‘zallik, badiiy-estetik ideal aslida tiriklikda ekanligini anglayapti.

Bundan tashqari, adibning “Muammo” hikoyasida ham tabiat tasviri qahramon kayfiyatiga, ruhiyatiga, kechinmalariga uyg‘un ravishda keladi. Asar qahramoni chet elga grant yutib borib, ularning bir-biriga doimo tabassum bilan qarash odatini olib keladi, bu chet elda normal va umumbashariy xususiyat sifatida baholanadi. Qahramon yurtimizga qaytgach esa og‘zi qulog‘ida, xursand, odamlarga ham tabassum, mehr bilan qaraydi, ayni shu o‘rinda qahramon kayfiyati bilan muvofiq ravishda tabiat ham yashnaydi, “Quyosh charaqlagan, osmon ko‘m-ko‘k, tabiat yashillikka burkangan” tarzida tasvirlanadi. Lekin bu tabassumni bizning odamlar iliq qarshi olmadi, tabassum bilan javob qaytarmadi, aksincha bir qancha haqoratli so‘z va quruq tuhmatlarga giriftor bo‘ldi. Yakunda ham adib xulosani kitobxon hukmiga havola qiladi, ya’ni qahramonimizga-da tabassum hadya etgan, sumkasini ushlab turishga ko‘maklashgan ayol ham, sumka ham g’oyib bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, madaniyat bilan insoniylik yonma-yon yurmas ekan jamiyatda rivojlanish ham, taraqqiyot ham bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Solijonov Y., Ko‘zgudagi hayot., -T., 2013
2. Vladimirova N.O‘zbek hikoyalarida g‘oya va obraz, -T.:Fan, 1989.
3. Yo‘ldoshev A. Puankare :hikoya va qissalar, -T.:Akademnashr, 2014
4. Yo‘ldoshev A. Bankir, -T.:Tafakkur qanoti, 2012
5. Nazim, B. (2024). THE USE OF FACT-CHECKING INSTRUMENTS IN ENHANCING MEDIA LITERACY. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 440-444.
6. Nazim, B. (2024). ENHANCING INFORMATION SECURITY THROUGH IMPROVED MEDIA LITERACY MODULES. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(3), 235-239.

⁴² Йўлдошев А. Пуанкаре: ҳикоя ва қиссалар. – Тошкент: Akademnashr, 2014. - Б. 15

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

7. Ziyodullayeva, K., & Bo'ronov, N. (2024). FAKE NEWS AND THEIR ROLE IN PROPAGANDA MATERIALS. Развитие и инновации в науке, 3(8), 55-57.
8. Бўронов, Н. (2022). МЕДИАТАЪЛИМ ФЕЙК МАЪЛУМОТЛАРГА ҚАРШИ ҚАРШИ МЕДИСАВОДХОНЛИКНИ ОШИРУВЧИ ВОСИТА СИФАТИДА. RESEARCH AND EDUCATION, 1(6), 241-250.
9. Khumora, Z., & Nazim, B. R. THE ROLE OF THE INTERNET IN THE SPREAD OF FAKE INFORMATION.
10. Абдулазизова, С. М., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. YANGI О 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 94-96.
11. Мадрахимова, З. Ф. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 94-97.
12. Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.
13. Назирова, З. Р. (2021). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОПТИМИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ ВЕТЕРИНАРНОГО ВУЗА НА ОСНОВЕ ИКТ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 629-633.

